

TALABALARNING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYALARINI INOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Ziyayeva Muhayyo Usmonjonovna

O'zDJTU, Integrallashgan kafedra 3 katta o'qituvchisi


Uzoqova Marjona Sherali qizi

O'zDJTU, Ingliz tili uchinchi fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'qituvchi va talabalar ilm olish va berish jarayonlarida eng zamonaviy texnikalardan foydalanish va innovatsiyalarni yaxshi qabul qilish, ulardan to'g'ri va samarali yo'llarda foydalanish, shu bilan birgalikda o'zlari yangi innovatsiyalar o'ylab topishlari haqida fikr berib o'tiladi. Qo'shimcha ravishda, talabalar o'rtasida ilmiy kompetensiyani rivojlantirish ham asosiy muhokama mavzusiga aylantirilgan va bir qancha asosiy va muhim tushunchalar berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Hammaga ma'lumki, qachonki biz ta'lim to'g'risida gapirganimizda, birinchi o'rinda uning mukammal yoki mukammal emasligiga e'tibor qaratamiz.*

Buning asosiy sabablaridan biri bo'lsa – biz tashkil qilayotgan ta'lim ya'ni ilm berish yo'llari bizga qanchalar foyda keltiradi, o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan ishtiyoqlarini qay darajada o'stira oladi? – degan savollarga javob bo'la olishi kerak. Ta'lim, ilm so'zlari o'z ichiga shunchalar keng ma'nolarni oladiki, bularni bir so'z bilan shunchaki ifodalab qo'yish mushkul. Unday bo'lsa biz manashu yo'nalishda ya'ni ta'lim sohasida o'z fikrlarimizni bayon qilishga harakat qilib ko'ramiz. Ilmga yondash odamlar orasida biz faqat ikki xil doiraga kiruvchilarni ajrata olamiz.



Ular: o'qituvchilar (ilm beruvchilar) va albatta talabalar (ilm oluvchilar). Ilm bu ikki insonlarsiz o'z ilmlik xususiyatini yo'qotadi. Ya'ni fikrimizni to'laroq

bayon qiladigan bo'lsak, bir tur doirasiga mansub individuallar o'zlarida jamlay olgan bilim va ko'nikmalarni boshqa bir tur doirasiga kiruvchi individuallarga ulashishni xohlaydi va buni amalga oshiradi. Bu kabi hodisalar ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Ta'lim jarayonini biz o'rganuvchilar va o'rgatuvchilarga bo'lib olarkanmiz, ular orasida bo'lib o'tadigan jarayonlarga e'tibor qaratamiz. Bu turli xil holatlar, uslublar va texnologilarni o'z ichiga qamrab oladi. Quyida esa mana shu jarayonlarning deyarli yarim qismini tashkil qiluvchi – “Kompetentsiya”lar haqida to'xtalib o'tamiz.

Kompetentsiya – bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, “competo”, “erishyapman”. “loyiqman” degan ma'nolarni anglatadi.

Bu so'zning asosiy mazmun mohiyatiga keladigan bo'lsak esa, raqobat talab qiladigan har bir vaziyat buni qo'llab quvvatlaydi. Biz bilamizki har bir ish rivojlanish talab qilganidek, ta'lim va undagi sohalar ham o'z oldida shiddat bilan rivojlanishni maqsad qilib qo'ygan. O'quvchilarga ta'lim berish jarayonida o'rgatuvchilar ya'ni o'qituvchilar talabalar orasida kompetentsiyaviy tabiatni yarata olishlari va so'g'lom raqobatni ular orasida rivojlanishini tamin etishlari talab etiladi. Raqobat haqida so'z ketar ekan, biz shu o'rinda talabalarning ijtimoiy-madaniy holatlari va bu kabi holatlarga ularning qarashlari haqida ham gap yuritishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungidek rivojlangan bir davrda barcha o'rganilayotgan sohalar singari til o'rganish sohasini ham birinchilikni qo'lidan bergani yo'q. Ya'ni yillar o'tgan sayin o'quv tizimlari shuni tushunib yetmoqdaki, hech bir soha chet tillarini o'rganmagan holatda ham dunyo darajasida rivojlana olmasligini. Shunday ekan barcha sohava undagi talabalar nafaqat Sharq balki G'arb tillarini ham mukammal o'rganishmoqda. Chet tillari va ularni o'rganish haqida gap ketar ekan, yashirmagan holda aniqlik bilan shuni gapirish kerakki boshqa mamlakat tillarini o'rganish orqali yoshlar orasida o'sha davlat tili bilan birgalikda uning madaniyati kirib kelishi ham hech kimga sir emas.

Madaniyat – bu dunyo mamlakatlarining tarixi chuqur o'rganilgan holda hozirgi holatidan kelib chiqib dunyoni tushunishi va unga bo'lgan qarashlari yig'indisidir.

Madaniyatlarni hurmat qilgan holda chet tillarini o'rganish bu sohaning asosiy maqsadidir. Chet mamlakat tillarini o'rganish, o'rganganda ham ulardan olgan fikrlarni o'zimizniki bilan chog'ishtirgan holda chuqur yondashish – talabalar orasidagi ijtimoiy-madaniyatni to'g'ri tashkillashtirilishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-madaniyat – har bir mamlakatga tegishli bo'lgan qarashlarning ommalashuvi.

Hozirgidek shiddat bilan rivojlanayotgan bir vaziyatda, barcha sohalarda ommalashuv yuzaga kelmoqda. Shular qatorida mamlakatlar madaniyatini ham ko'rishimiz mumkin. Ommalashuv, ijtimoiylashuv – bular barchasi

yoshlarni bir nuqtaga jamlash va ularning eng olg'ir fikrlarini omma oldiga qo'ya olishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa manashunday foydali yondashuvni texnologiyalar bilan bog'lash ham nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Hozirda biz yashab turgan davr XXI asr hisoblanadi va turli tuman texnologiyalarning vujudga kelganligi, ko'pgina ishlarning kompyuterlar orqali bajarilayotgani hech birimizga sir emas. Bu kabi jarayonlarning borayotganliging salbiy oqibatlari bo'lishiga qaramasdan, bir necha va hatto undan ham ko'proq ijobiy tomonlari ham mavjud. Keling unda talabalarning hozirgi kunda ta'lim olayotgan usullari bilan birgalikda bundan qariyb besh yoki o'n yil oldingi ta'lim olish tizimlarini bir necha jadvallar orqali solishtirib o'tamiz:

No	Hozir (Ta'lim jarayoni)	Oldin (Ta'lim jarayoni)
1.	Taqdimot barcha ishtirokchilarga ko'rinadigan darajada ulkan ekranlarda ko'rsatiladi va gapiriladi	Taqdimot qog'oz ko'rinishida tayyorlanar va oldingi qatlam ishtirokchilarigagina taqdim etilardi xolos
2.	Barcha dars xonalarida intraktiv doskalardan foydalanishmoqda (unda yozishdan tashqari, film, video, qiziqarli mashg'ulotlar, hkz taqdim etish mumkin)	To'q rangdagi doska va unda iz qoldirish uchun foydalaniladigan bo'rlar
3.	O'qituvchi tushuntirishga va qo'llanmalarni ulashishga kam vaqt sarflaydi	O'qituvchi har bir mavzuning qo'llanmalarini talabalarga ulashish uchun yozdirishi kerak
4.	O'qituvchi va talabalar bir mavzu ustida munozalar olib boradi	O'qituvchi dars uchun ajratilgan har bir daqiqani mavzuni to'laqonli talabalarga tushuntirishga sarflardi

	(O'quv materiallari oldinroq ulashilgan va o'rganib kelish vazifa qilib berilganligi sababli)	
5.	Endlikda o'rganilayotgan barcha narsalar talabalarga ko'rsatiladi	O'rgatilayotgan narsalarni ko'rish uchun maxshush amaliyot kinida borib ko'rishga to'g'ri kelardi

Yuqorida sanab o'tilgan davr solishmalari hozirgi kunda talabalarning ilm olishlari uchun qanchalar keng imkoniyatlar yaratilganligining yaqqol misolidir. Bularning barchasidan anglash kerak bo'lgan asosiy tushuncha bu – innovatsiyadir.

Innovatsiya – Ingliz tilidan olingan so'z bo'lib, “kiritilgan yangilik”, “ixtiro” degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'zning asosiy ma'nosi ilmiy-texnika yutuqlariga asoslangan bo'lib ularning rivoji uchun qilingan investitsiya hisoblanadi.

Hozirgi kunda har bir soha vakillari innovatsiyalarga katta e'tibor qaratishmoqda, buning asosiy sabablaridan biri esa insonlarning doimo yangiliklarga intilib yashaganliklaridir. Ayniqsa ta'lim sohasidagi innovatsiyalar mamlakatimiz uchun o'ta muhim jarayonlardan biridir. Hammamizga ma'lumki innovatsiya – bu yangilik. Ayniqsa talabalarning ilm olish jarayonlarini innovatsiyalar asosida tashkil etish bu juda muhim hodisa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: “Fan”. 2005.
2. Farberman. B.L. Ilg’or pedagogik texnologiyalar.- T.:2001
3. Dadamirzaev G’. Pedogogik texnologiyalar bo’yicha izohli tayanch so’z va iboralar. Metodik qo’llanma. - Namangan, NamMPI, 2008 yil, 30 bet.
4. Ibragimova G.N. Interfaol o’qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.

